



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
IJTIMOIIY HIMOA TIZIMIDA MOLİYAVIY RESURLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	221
Aipova Iroda Ikramovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	226
Musayeva Shoira Azimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLİYALASHTIRISHDA ISLOM MOLİYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
Sevara Hakimova Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI	251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna	
YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLİYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI	255
Turanov Suhrob Bahodir o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLİYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR	262
Nazarov G'ulom Akmal o'g'li	
“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA'LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI	269
Raxshona Nabibullayeva	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	275
Baxadirov Alisher Komilovich	
TIJORAT BANKLARNING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	281
Nomozov Umid Iskandarovich	
GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING.....	285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	293
Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna	
XORIJYIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODEL, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG'OR TAJRIBALARI.....	297
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o'g'li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi	
XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI	302
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI O'RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHDAGI TO'SIQLAR	306
Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH.....	316
Xamidova S.Ya.	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	322
Ro'zieva Gulchexra O'sarovna	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O'TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	328
Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna	
O'ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	333
Isomiddinova Xilola Xasan qizi	
ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ.....	338
Муниса Турдибаева	
O'ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	350
Xamdamova Guljaxon Ablakulovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	357
Malikova Ug'iloy Abdurasul qizi	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH VA CO ₂ EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG'I (EKC) ASOSIDA TAHLIL	363
Choriyev Maxmayoqub	
YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA "NAVOIYAZOT" AJ AMALIYOTI	368
Sayidova Shahlo Toshtemirovna	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	373
Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH MODELİ	381
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI.....	386
Qo'ldosheva Xolisa	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	393
Hakimov Nodir Nazarovich	



SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DRAYVER TARMOQLARNING O'RNI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI	399
Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	404
Yusupov Ravshanbek Aminbaevich	
ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ОРГАНИЧЕСКОГО СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ "ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ"	410
Джумаев Аскар Хайдарович	
UNIVERSITETLARDA NATIJA MEZONLARINI JORIY QILISH VA MAGISTRATURA BOSQICHIDA QISQARTIRILGAN ISH VAQTI MAOSHI ORQALI BUDJET YUKLAMASINI KAMAYTIRISH	415
Primova Nigora Ikrom qizi	



UNIVERSITETLARDA NATIJA MEZONLARINI JORIY QILISH VA MAGISTRATURA BOSQICHIDA QISQARTIRILGAN ISH VAQTI MAOSHI ORQALI BUDJET YUKLAMASINI KAMAYTIRISH

Primova Nigora Ikrom qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Moliya kafedrası dotsenti, PhD.
n.primova@tsue.uz ORCID:0000-0003-1423-1013

Annotatsiya. Mazkur maqolada universitetlarni ilmiy, ixtisoslashgan va ko'p tarmoqli turlarga ajratish asosida davlat budjetidan moliyalashtirishning natija mezonlari ishlab chiqilgan. Magistratura bosqichida talabalarga qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnatga haq to'lash tizimini joriy etish orqali budjetga tushadigan moliyaviy yuklamani kamaytirish mexanizmi asoslab berilgan. Shuningdek, Malayziya, Niderlandiya va Finlyandiya kabi xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, undan O'zbekiston sharoitida samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish, natija mezonlari, universitetlar tasnifi, magistratura, qisqartirilgan ish vaqti, budjet yuklamasi.

Abstract. This article examines the performance criteria for state budget financing based on the classification of universities into scientific, specialized, and multidisciplinary types. A mechanism for reducing the financial burden on the state budget through the introduction of remuneration based on reduced working hours for master's degree students has been substantiated. The experiences of foreign countries such as Malaysia, the Netherlands, and Finland were analyzed, and proposals and recommendations for their effective application in the conditions of Uzbekistan were developed.

Key words: performance-based budgeting, performance criteria, university classification, master's degree, reduced working hours, budget burden.

Аннотация. В данной статье рассматриваются критерии эффективности финансирования из государственного бюджета на основе классификации университетов на научные, специализированные и многопрофильные типы. Обоснован механизм снижения финансовой нагрузки на государственный бюджет путем внедрения системы оплаты труда студентов магистратуры на основе сокращенного рабочего времени. Изучен опыт зарубежных стран, таких как Малайзия, Нидерланды и Финляндия, а также разработаны предложения и рекомендации по его эффективному применению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: бюджетирование, ориентированное на результат, критерии эффективности, классификация университетов, магистратура, сокращенное рабочее время, бюджетная нагрузка.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-sonli¹ Farmonida 2027-yil 1-yanvardan boshlab oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingi natijalariga ko'ra moliyaviy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish belgilangan [1]. Ko'pgina mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirishda an'anaviy smeta usulidan natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishga (NYB) o'tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'plab mamlakatlarda universitetlarga ajratilayotgan davlat budjeti mablag'lari umumiy moliyalashtirishning 60–70 foizini tashkil etadi [2]. Biroq mablag'lar hajmidan ko'ra, ulardan natijador va maqsadli foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [3]. Shu bilan birga, budjet mablag'larini taqsimlashda universitetlarning ilmiy salohiyati, ixtisoslashuvi va mehnat bozori talablari yetarli darajada inobatga olinishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4].

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-8129755>



Tadqiqotning maqsadi universitetlarni tasniflash asosida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mezonlarini ishlab chiqish hamda magistratura bosqichida qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnatga haq to'lash orqali budjet yuklamasini kamaytirish mexanizmini taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Universitetlarni natijaviy moliyalashtirish bo'yicha dunyo mamlakatlarida ko'plab xalqaro tadqiqotlar olib borilgan. Yevropalik olimlardan Jongbloed B. (2018) Niderlandiyadagi "performance agreements" tizimi universitetlarni strategik hamkor sifatida shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatgan [5]. Osiyo mamlakatlari tajribasida esa Malayziyada universitetlar tasnifi — ilmiy-tadqiqot, ko'p tarmoqli va ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari asosida KPI bloklari ishlab chiqilgan hamda keng qo'llanilmoqda [6].

Finlyandiyada bitiruvchilar soni, ilmiy nashrlar va mehnat bozori bilan hamkorlik kabi mezonlarga katta e'tibor qaratilgan [7]. Rossiyalik olimlardan Malseva G.I. (2007) "xarajatlardan natijalarga boshqarish" konsepsiyasini ilgari surgan [8].

Respublikamizda ushbu sohada S.K., Karlibayeva G.X., Sherov A.B. kabi olimlar oliy ta'limni moliyalashtirishning turli jihatlarini tadqiq etgan [2, 9]. Biroq universitetlar tasnifi va magistratura bosqichidagi mehnat faoliyatini ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida bir qator zamonaviy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahliliy-taqqoslash usuli asosida Malayziya, Niderlandiya va Finlyandiyada qo'llanilayotgan natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish (NYB) modellari o'zaro solishtirildi hamda ularning samarali jihatlarini tahlil qilindi.

Shuningdek, ekspert baholash usuli yordamida universitetlarni tasniflash mezonlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari baholandi. Bundan tashqari, iqtisodiy-matematik modellashtrish usuli orqali magistratura bosqichida ish vaqtini qisqartirishning davlat budjetiga ta'siri hisob-kitob qilinib, uning iqtisodiy samaradorligi tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mehnat bozorining global transformatsiyasi va inson kapitali rolining ortib borishi sharoitida oliy ta'lim tizimi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylandi. Respublika milliy iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilayotgan bir paytda, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. An'anaviy xarajatlarga asoslangan smeta modeli esa ta'lim sifati va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish uchun yetarli rag'batlantirish imkoniyatlarini to'liq ta'minlay olmayapti.

2023–2025-yillarda respublikada oliy ta'lim xarajatlari 34 foizga oshdi, biroq bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlari (63 foiz) hamda ilmiy nashrlar faolligi (Scopus ma'lumotlariga ko'ra yiliga o'rtacha 0,3 ta maqola) OECD mamlakatlari ko'rsatkichlaridan pastligicha qolmoqda. Oliy ta'limni budjetdan moliyalashtirish hajmlarining oshib borishiga qaramay, bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va ilmiy faoliyat natijalari yanada takomillashtirishni talab etadi. Bu esa IHTT mamlakatlari, Xitoy, Chili va boshqa qator davlatlarda samaradorligi tasdiqlangan natijaga yo'naltirilgan resurs taqsimoti modellariga o'tish zaruratini ko'rsatadi [10].

Tadqiqotlarimizda Malayziya tajribasi asosida universitetlar quyidagi uch turga ajratildi:

1. Ilmiy-tadqiqot universitetlari — Scopus/Web of Science tizimlarida chop etilgan maqolalar, ilmiy havolalar va ilmiy loyihalar soni yuqori bo'lgan universitetlar.
2. Ko'p tarmoqli universitetlar — bitiruv darajasi, talaba-o'qituvchi nisbati va xalqarolashuv ko'rsatkichlari bilan ajralib turadigan universitetlar.
3. Ixtisoslashgan universitetlar — bitiruvchilarning bandligi, ish beruvchilar qoniqishi va sanoat bilan hamkorlik darajasi yuqori bo'lgan universitetlar.

Mazkur mamlakatda qat'iy formulaga yoki to'liq vertikal boshqaruvga asoslangan budjetlashtirish amaliyoti qo'llanilmaydi. Uning asosiy xususiyati Outcome-Based Budgeting (OBB) va Performance Management elementlarini birlashtirgan aralash model orqali namoyon bo'ladi. Ushbu metodologiya 2010-yildan buyon amaliyotga joriy etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili "mablag' → faoliyat → natija → ijtimoiy ta'sir" zanjiri asosida shakllantirilgan.

Malayziyada mazkur model uch bosqichli tizim asosida amalga oshiriladi:

1. Strategik natijalar (Outcomes). Davlat tomonidan oliy ta'lim tizimi uchun asosiy milliy natijalar belgilanadi. Jumladan, bitiruvchilar bandligi (graduate employability), ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish va xalqarolashuv darajasini oshirish kabi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari ushbu strategik maqsadlardan kelib chiqib o'z rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqadi.



2. Ijro ko'rsatkichlari. Ushbu bosqichda ta'lim sifati (bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi, talabalar mobilligi, STEM yo'nalishlari ulushi), ilmiy faoliyat (maqolalar, patentlar, startaplar va sanoat bilan hamkorlik) hamda xalqarolashuv (xorijiy talabalar va qo'shma dasturlar) kabi mezonlar asosiy indikator sifatida belgilanadi.

3. Moliyaviy mablag'lardan foydalanish samaradorligi. Budget mablag'lari erishilgan natijalar va bajarilgan ko'rsatkichlar asosida taqsimlanadi. Shu orqali moliyalashtirishning samaradorligi va shaffofligi oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini budgetdan moliyalashtirishda bazaviy mablag'lar hajmi saqlanib qolishiga qaramasdan, erishilgan natija mezonlari asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Muhimi, oliy ta'lim muassasalari uch toifaga ajratilib, natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish amaliyoti aynan shu tasnif asosida qo'llanilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot universitetlari ilmiy loyihalar va tadqiqot buyurtmalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan bo'lib, asosiy e'tibor ilmiy kadrlar tayyorlash hamda innovatsion ishlanmalarni rivojlantirishga qaratiladi.


Ko'p tarmoqli universitetlar turli sohalarda ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatini birgalikda olib boradi. Ular iqtisodiyot, tibbiyot, muhandislik, gumanitar fanlar kabi ko'plab yo'nalishlarni qamrab olgan holda faoliyat yuritadi.

Ixtisoslashgan universitetlar esa ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan bo'lib, aynan shu yo'nalish bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Malayziyalik olim N. Abdullax tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ushbu mamlakat oliy ta'lim tizimida universitetlar faoliyatini natija mezonlari va ijro ko'rsatkichlari (performance measurement) orqali baholash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotlarda ijro ko'rsatkichlari arxitekturasiga alohida e'tibor qaratilib, universitetlarni davlat budgetidan moliyalashtirish jarayonida natija ko'rsatkichlari ishonchli va aniq o'lchanishi zarurligi ta'kidlanadi. Umuman olganda, maqolada natija ko'rsatkichlari to'rt guruhga ajratilgan. Jumladan, o'qish va o'qitish jarayonlari (bitiruvchilar sifati, talabalar qoniqishi), ilmiy tadqiqot natijalari (ilmiy maqolalar soni, iqtiboslar, tadqiqotlarni tijoratlashtirish va xalqaro hamkorlik), xalqarolashuv (xorijiy talabalar, qo'shma dasturlar va akademik mobillik) hamda institutsional samaradorlik (moliyaviy boshqaruv, strategik rejalashtirish va boshqaruv sifati indikatorlari) kabi yo'nalishlar keltirib o'tilgan [11].

Yana bir malayziyalik olim A. Ahmad va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda Malayziyada natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish amaliyotini joriy etish zarurati bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Mualliflar ushbu dolzarblilikni to'rtta asosiy omil bilan izohlaydi. Birinchidan, an'anaviy budgetlashtirish tizimi asosan resurslar sarfini nazorat qiladi, biroq yakuniy natijadorlikni to'liq kafolatlamaydi. Shu sababli moliyalashtirishni natijalar bilan bog'lash zarurligi ta'kidlanadi. Ikkinchidan, bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi davlat siyosatining muhim indikatoriga aylangani bois, ushbu ko'rsatkichni universitetlar faoliyati samaradorligining asosiy mezonlaridan biri sifatida qo'llash taklif etiladi. Uchinchidan, ilmiy sohada raqobat ustunligini ta'minlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni ta'lim jarayoni bilan integratsiya qilish va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi. To'rtinchidan, universitetlarni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligi alohida qayd etiladi [12].

Bizning fikrimizcha, ushbu mamlakatda oliy ta'lim muassasalarining faoliyat yo'nalishlari aniq tizimlashtirilgan. Mazkur tasnif asosida davlat budjeti mablag'larini yo'naltirish universitetlarning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalari tasnifi asosida natija mezonlarini tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Malayziya oliy ta'lim muassasalarini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish tendensiyalari [13], mln ringgit



1-rasmda Malayziyada oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish so'nggi yillarda inflyatsiya ta'sirida kamayganligini ko'rish mumkin. Bu esa milliy budjet tizimida oliy ta'lim uchun ajratilayotgan mablag'lar ulushi 3,9 foizgacha pasayganligini aks ettiradi. Mazkur tendensiyalarning vujudga kelishi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotining yanada muhim ahamiyat kasb etayotganini ifodalaydi.

Ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan universitetlarda Scopus bazasiga kirgan nashrlardagi maqolalar soni, ularga berilgan havolalar indeksi, ilmiy grantlar hajmi, PhD bitiruvchilari soni, patentlar va startaplar asosiy natija ko'rsatkichlari sifatida keltirilishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlarning natijaviyligi keyingi yillarda budjet mablag'larini taqsimlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Universitetlarning tasnifi asosida natija mezonlari xususiyati²

KPI bloki	Ilmiy tadqiqot institutlari	Ko'p tarmoqli universiteti	Ixtisoslashgan universitet
Ilmiy maqolalar soni	Juda yuqori	O'rtacha	Kuchsiz
Havolalar miqdori	Juda yuqori	Yuqori	O'rtacha
Ilmiy loyihalar	Juda yuqori	Yuqori	O'rtacha
Bitiruv darajasi	Kuchsiz	Yuqori	Juda yuqori
Talaba-o'qituvchi nisbati	Kuchsiz	O'rtacha	O'rtacha
Bitiruvchilar bandligi	Kuchsiz	O'rtacha	Yuqori
Ish beruvchi qoniqishi	Kuchsiz	O'rtacha	Yuqori
Sanoat bilan hamkorlik	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori
Xalqarolashuv	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha
Xalqaro reyting	Kuchsiz	Yuqori	O'rtacha

Qisqartirilgan ish vaqti maoshi modeli:

$$\Delta B = \sum_{i=1}^n \left(\frac{E_i}{FTE_i} \times 0,5 \right) x - C_{\text{solik}}$$

Bunda:

- ΔB – budjet yuklamasining o'zgarishi (ijobiy – budjetdan chiqimlar ko'payishi, manfiy – tejamkorlik);
- i – magistrantlar guruhi yoki yo'nalishi indeksi;
- E_i – i -guruhdagi magistrantlar soni;
- FTE_i – bir magistrant uchun to'liq ish vaqti ekvivalenti (Full-Time Equivalent), ya'ni universitet xodimi mehnat resursining qancha qismi magistrantlar bilan ishlashga sarflanishi;
- C_{solik} – budjetga to'lanadigan soliqlar (masalan, ish haqi fondidan soliqlar) yoki boshqa majburiy to'lovlar summasi.

Iqtisodiyot o'sishining keng ko'lamda amalga oshishi natijasida ijtimoiy soha xarajatlari ham ortib borayotganligini qayd etish lozim. Bu esa oliy ta'lim ko'rsatkichlari bilan bog'liq xarajatlar o'sishidan tashqari, iqtisodiy jarayonlar va makroiqtisodiy omillarning ta'siri yuqori ekanligini ifodalaydi. Natijada, oliy ta'lim ko'rsatkichlarining natijadorlik darajasini baholashda ixtisoslashtirilgan tahlillarni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi.

Oliy ta'lim bitiruvchilari sonining ortib borishi bilan ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlash xarajatlarning ham oshishini kuzatish mumkin. Mazkur holat davlat tomonidan bitiruvchilarning bandligini ta'minlash va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar kengayib borayotgani bilan izohlanadi. Xususan, bitiruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan subsidiya mexanizmlarining joriy etilishi hamda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga oid budjet ustuvorliklarining kuchayishi bunga misol bo'la oladi.

Magistratura yo'nalishida talabalar sonining ortishi ijtimoiy xarajatlarning o'zgarishiga teskari proporsional ta'sir ko'rsatishini qayd etish mumkin. Bu esa budjetga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirishda ta'lim darajasining oshib borishi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shuningdek, bakalavr darajasini olgandan so'ng magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalar qisqartirilgan ish vaqti asosida faoliyat yuritishi sababli budjetga nisbatan moliyaviy yuklamaning kamayishi kuzatiladi.

2 Muallif ishlanmasi



2017–2024-yillar kesimida ijtimoiy soha xarajatlarning oliy ta'lim ko'rsatkichlaridan tashqari omillar ta'sirida ham o'sish tendensiyasiga ega bo'layotganligini ko'rish mumkin. Bunda iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasining ortishi kabi makroiqtisodiy omillar tizimli ta'sir ko'rsatayotganini kuzatish mumkin (2-jadval).


2-jadval. Universitetlar tasnifi asosida taklif etilayotgan moliyalashtirish mezonlari³

Ko'rsatkich	Ilmiy universitet	Ko'p tarmoqli universitet	Ixtisoslashgan universitet
Ilmiy maqolalar (Scopus)	Juda yuqori (>50/yil)	O'rtacha (10-30)	Past (<5)
Bitiruvchilar bandligi	O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori
Ish beruvchi qoniqishi	O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori
Budjetdan ajratilayotgan ulush	40%	35%	25%

Magistratura bosqichida qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnatga haq to'lash tizimining budjetga ta'siri simulyatsion tahlil asosida o'rganilganda quyidagi natijalarni kuzatish mumkin:

1000 nafar magistrantga haftasiga 20 soatlik ish haqi to'langanda, soliq tushumlari hisobga olingan holda davlat budjeti mablag'laridan o'rtacha 350 mln so'm iqtisod qilinishi mumkin. Shuningdek, davlat budjetidan oliy ta'limga ajratilayotgan mablag'larni universitetlar tasnifi asosida qayta taqsimlash natijasida tizim samaradorligi 18–22 foizga oshishi aniqlangan.

Quyida keltirilgan 1-rasm va 2-rasmlar O'zbekistonda ish haqi xarajatlarning boshqa xarajatlarga nisbatan sezilarli darajada o'sib borayotganligini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini davlat budjetidan moliyalashtirish tendensiyalari⁴, mlrd. so'mda

1-rasmda O'zbekiston davlat oliy ta'lim muassasalariga davlat budjetidan mablag' ajratish tendensiyalari aks ettirilgan. Mazkur tendensiyada 1-, 2- va 4-guruh xarajatlari keltirilgan bo'lib, ularning hajmidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hajmi 2016–2025-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, 4-guruh boshqa xarajatlar hajmi 2018–2020-yillarda qisqarish holatini namoyon etgan. Bu esa davlat oliy ta'lim muassasalarida infratuzilmaviy xarajatlar ulushining kamayganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha xarajat yo'nalishlari kengayganligini taxmin qilish mumkin.

Shuningdek, 1-rasmdagi tendensiyada ish haqiga ajratmalar hajmi ham ish haqi miqdoriga mos ravishda o'sib borganligini qayd etish lozim. Bu esa ish haqi bilan bog'liq ajratmalar uchun davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan qo'shimcha to'lovlar tizimli ravishda oshib borayotganligini ko'rsatadi (2-rasm).

³ Muallif ishlanmasi

⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



2-rasm. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini davlat budjetidan moliyalashtirish ulushi⁵, foizda

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarda davlat oliy ta'lim muassasalari uchun ajratilgan davlat budjeti xarajatlari ulushi foizlarda aks ettirilgan. 2017–2018-yillarda ish haqi xarajatlari ulushi oshgan bo'lsa, keyingi davrlarda uning nisbiy kamayish tendensiyasi kuzatiladi. Bu holat davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar bilan bir qatorda, budjetdan tashqari mablag'lar ulushining ham kengayib borishi bilan izohlanadi. Shuningdek, mazkur davrda 4-guruh xarajatlari ulushining teskari proporsional shakllanganligini ham kuzatish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarini tasniflash asosida moliyalashtirish:

- budjet mablag'larining maqsadli va samarali yo'naltirilishini ta'minlaydi;
- ilmiy salohiyat hamda mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirishga xizmat qiladi;
- ixtisoslashgan universitetlarda bandlik masalalariga alohida e'tibor qaratish imkonini beradi.

Qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnatga haq to'lash modeli esa:

- magistrantlarning mehnat bozoriga erta integratsiyasini ta'minlaydi;
- davlat budjetiga tushadigan daromad solig'i tushumlarini oshiradi;
- ta'lim jarayonidan uzilib qolish xavfini kamaytiradi.

Niderlandiya tajribasiga ko'ra, "performance agreements" asosida ajratiladigan mablag'lar umumiy budjetning nisbatan kichik ulushini tashkil etsa-da, ularning natijadorlikka ta'siri sezilarli darajada yuqori hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarini ilmiy, ko'p tarmoqli va ixtisoslashgan turlarga ajratish hamda ularga mos KPI bloklarini ishlab chiqish davlat budjetidan moliyalashtirish samaradorligini 18–22 foizga oshirish imkonini beradi.

Magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarga qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnatga haq to'lash tizimini joriy etish budjet yuklamasini kamaytirish va soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan modellarni O'zbekistonning barcha hududlaridagi oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyati mavjud.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan universitetlarning yuqoridagi tasnifini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun haftasiga kamida 20 soatlik ish haqi to'lanadigan "stajyor-yosh mutaxassis" dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8129755>
2. OECD. Education at a Glance 2025. — Paris: OECD Publishing, 2025.
3. Karlibayeva G.X. OTM moliya tizimini rivojlantirish. — DSc avtoreferati, 2025.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan ishlab chiqilgan



4. Primova N. Development of the Result-Oriented Budgeting Mechanism in Uzbekistan // Scientific-Electronic Journal "Green Economy and Development". — 2024. — №4.
5. Jongbloed B. Performance-based funding in higher education // Higher Education. — 2018. — Vol. 76, №3. — Pp. 495–512.
6. Pratolo S. University classification and funding in Malaysia // Asian Journal of Education. — 2020. — Vol. 12, №2. — Pp. 88–102.
7. Kataeva Z. Performance agreements in Finland // Journal of Higher Education Policy. — 2023. — Vol. 45, №1. — Pp. 34–49.
8. Malseva G.I. Konsepsiya perekhoda vuza ot upravleniya zatratami k upravleniyu rezultatami // Sibirskaya finansovaya shkola. — 2007. — №1. — S. 120–131.
9. Sherov A.B. OTMni moliyalashtirish metodologiyasi. — DSc dissertatsiyasi avtoreferati, 2025.
10. Xans de Bryuyn. Upravleniye po rezultatsam v gosudarstvennom sektore. — Moskva: Institut kompleksnykh strategicheskikh issledovaniy, 2005.
11. Abdullah N.A. Performance Measurement in Malaysia's Higher Education // Higher Education Policy. — 2012. — Vol. 9, №4. — Pp. 309–324.
12. Ahmad A.R., Yee K.S., Farley A. Exploring the Rationale of Performance Based Funding for Malaysian Public Universities // Journal of Education and e-Learning Research. — 2019. — Vol. 7, №1. — Pp. 15–21.
13. Rescuing Malaysian Higher Education from Neoliberalism. [New Mandala](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
